

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР
БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўктамовна
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ
ФАОЛИЯТИ 40-48

Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА
УЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ
ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>То'хтайев Хаким Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-165
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)	166-171
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	172-179
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	180-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	187-194
<i>Umarova Xurshida Zikiryoхonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI	195-203
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN	204-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	218-224
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР	247-253
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

09.00.00-Фалсафа фанлари

Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoqarash murakkab tizim sifatida qaralib, ushbu tizimni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi ichki aloqadorlik masalasi falsafaning dolzarb muammosi sifatida mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Xususan, sinergetik dunyoqarash, uning elementlari, shaxslararo munosabatlarga doir adabiyotlarni turli davrlarda ijod qilgan ko'plab Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy merosi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dunyoqarash, sinergetika, tizim, sinergetik duyoqarash, o'z-o'zini tashkil etish, paradigma, tartib, murakkab tizimlar, ochiqlik, attraktor.

Tajibaev Mukhiddin Abdurashidovich
teacher of Jizzakh Polytechnic Institute

THE SIGNIFICANCE OF STUDYING THE PARADIGM OF THE SYNERGETIC WORLDWIDE IN SOCIETY

Abstract. In this article, the worldview is considered as a complex system, and the issue of internal connection between the elements that make up this system is the focus of scientific research conducted in this direction as an actual problem of philosophy. In particular, the synergetic worldview, its elements, the scientific heritage of many Eastern and Western thinkers who created literature on interpersonal relations in different periods are considered.

Key words: Worldview, synergetics, system, synergetic dualism, self-organization, paradigm, order, complex systems, openness, attractor.

Таджибаев Мухиддин Абдурашидович
преподаватель Джизакского политехнического института

ЗНАЧИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ПАРАДИГМЫ СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО МИРА В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье мировоззрение рассматривается как сложная система, а вопрос внутренней связи между элементами, составляющими эту систему, находится в центре внимания научных исследований, проводимых в этом направлении, как актуальная проблема философии. В частности, рассмотрено синергетическое мировоззрение, его элементы, научное наследие многих восточных и западных мыслителей, создавших литературу по межличностным отношениям в разные периоды.

Ключевые слова: Мировоззрение, синергетика, система, синергетический дуализм, самоорганизация, парадигма, порядок, сложные системы, открытость, аттрактор.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N19>

Kirish. Murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkil etishi haqidagi sinergetik g'oyalar bugungi kunda tadqiqotlarning turli yo'nalishlariga, shu jumladan ijtimoiy-gumanitar sohaga ham kirib bormoqda. Tabiiy va ijtimoiy tizimlarni murakkab o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim sifatida o'rganish murakkab ko'p qirrali tadqiqotdir. Uni amalga oshirish uchun ushbu sohadagi mutaxassis bugungi kunda o'z-o'zini tashkil qilish tushunchasi sifatida sinergetika nima ekanligi haqida keng tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Sinergetika dastlab fanlararo yondashuv sifatida vujudga keldi. O'z-o'zini tashkil etish jarayonlarini tartibga soluvchi tamoyillar bir xil bo'lgani (tizimlarning tabiatidan qat'i nazar) va ularni tavsiflash uchun umumiy matematik apparat mos bo'lishi kerak.

Sinergetikaning asosiy g'oyasi shundaki, strukturani ko'p elementli tuzilmalar yoki ko'p faktorli muhitlarning o'zgaruvchan va noaniq xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan ochiq holat sifatida ifodalashdir. Ochiqlik tashqaridan energiya oqimi, ichki jarayonlarning nochiziqiligi, maxsus rejimlarning paydo bo'lishi va bir nechta barqaror holatning mavjudligi natijasida rivojlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sinergetika (qad. yunon. $\sigma\nu\nu$ — moslik ma'nosini bildiruvchi prefiks va $\epsilon\rho\gamma\acute{o}\nu$ — “faoliyat”) — bu ilmiy tadqiqotning fanlararo sohasi bo'lib, uning vazifasi tizimlar (ko'plab tizim ostilariga ega bo'lgan) ning o'zini o'zi tashkillashtirish tamoyillari asosida tabiat hodisalari va jarayonlarini o'rganishdir. “Sinergetika — o'z-o'zini tashkil qilish jarayonlarini va eng xilma-xil tabiatdagi tuzilmalarning paydo bo'lishi, saqlanishi, barqarorligi va parchalanishini o'rganadigan fan”[1].

Buni qaranki, sinergetikaning fan doirasidagi holati hozirgacha aniqlanmagan. Mazkur masala bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud. N.V. Poddubniyning yozishicha, sinergetika ko'pincha tor ma'noda nazariy fizikaning o'ziga xos sohasi sifatida va keng ma'noda umumiy ilmiy metodologiya yoki hatto madaniyat metodologiyasi va yangi dunyoqarashning asosi sifatida talqin qilinadi[2].

V.I. Arshinov va V.E. Voysexovich ushbu masala bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilib, bugungi kunda sinergetika quyidagicha tushuniladi:

1. Paradigma – g'oyalar, tamoyillar, obrazlar, g'oyalar tizimi, ehtimol, undan vaqt o'tishi bilan fundamental ilmiy nazariya yoki umumiy ilmiy nazariya, hatto dunyoqarash ham vujudga keladi.

2. Tizimlarda sodir bo'ladigan jarayonlarning nochiziqiligi, ochiqligi, o'zgaruvchanligi, muvozanatsizligi g'oyalari bilan birlashtirilgan bir qator xususiy ilmiy nazariyalar (fizika, kimyo, biokimyo, biologiya, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarda).

3. Umumiy ilmiy nazariya (u hali ham rivojlanib bormoqda), ya'ni dissipativ tuzilmalar nazariyasi (Prigojin ma'nosida) yoki o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar nazariyasi (Xaken ma'nosida) yoki xaosdan tartibga o'tuvchi jarayonlar nazariyasi sifatida.

4. Yangi dunyoqarash, fanda haligacha hukmron bo'lgan tafakkurni yengib, yuzaga kelayotgan, o'tish davri, beqaror, fraktal shakllar, obrazlar asosida tafakkurni tasdiqlovchi.

Mualliflarning o'zlari quyidagi nuqtai nazarga kelishadi. “Biz sinergetik paradigma istiqbollarga optimistik nuqtai nazardan (kelajakdagi umumiy ilmiy konsepsiya sifatida ham, yangi dunyoqarashning boshlanishi sifatida) kelib chiqamiz”[3].

M.V. Saprnov sinergetikani sinergetik yondashuv va sinergetik paradigmaga ajratadi. Sinergetik yondashuv “metod yoki konsepsiya sifatida” ko'rib chiqiladi. Sinergetik paradigma “muammolarni qo'yish va hal qilish uchun muayyan modellarni taqdim etadigan yangi

dunyoqarash” vazifasini bajaradi. Shuningdek, muallif sinergetik yondashuv va sinergetik paradigmaning qiyosiy tahlilini olib boradi. Taqqoslash chizig’i sifatida ularni qo’llashning mohiyati, maqsad va vazifalari, shartlari (chegaralari), qo’llash usuli, metodologik va kognitiv tamoyillari olinadi[4].

Sinergetikaning statusiga oid qarashlarning xilma-xilligi shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda to’liq izchil nazariya, o’z-o’zini tashkil etish jarayonining to’liq modeli, ishlab chiqilgan metodologiya, hatto uning konseptual apparati ham aniqlanishi va konkretlashtirilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Sinergetikaning ko’p jihatlari to’liq rivojlanmaganligiga qaramay, uni postnoklassik fanning metodologiyasi deb aytish mumkin. Sinergetika borliqning universal shakllarini, obyektiv voqelikning o’z-o’zini tashkillashtirish qonuniyatlarini o’rganib, metodologik funksiyani bajaradi. Uning qonuniyatlari va tushunchalari asosida tadqiqotchini kognitiv faoliyat jarayonida boshqaradigan tegishli talablar shakllanadi. Biroq sinergetika qoidalarini bilish metodi tamoyillariga o’tkazish ishlari endigina boshlanmoqda. Shunga qaramay sinergetika yangi falsafaga aylanishi mumkinligi haqidagi fikrlar bildirilgan. Albatta, sinergetika falsafiy umumlashtirish darajasiga yetishi mumkin, lekin bu falsafaning o’rnini bosa oladi degani emas, ayniqsa, u asosan obyektlarning miqdoriy xususiyatlarini ko’rib chiqadi.

G.A. Kotelnikov yozishicha, bugungi kunda “... zamonaviy kompyuter texnikasi yordamida matematik modellashtirishning eng so’nggi yutuqlariga tayangan holda, ilgari monopol bo’lgan falsafa bilan raqobatlasha boshlagan bilishning prinsipial yangi nazariyasi va metodologiyasi shakllanmoqda”[5]. Ba’zilar esa sinergetika maqomi haqidagi bunday nuqtai nazar kuchli asosga ega emas deb hisoblaydi[6].

Shuni ham alohida e’tirof etish kerakki, Sinergetika va falsafa o’rtasidagi bog’liqlik masalasida ularning metodologik funksiyalari nuqtai nazaridan bir qator pozitsiyalar mavjud. N.V. Poddubniy fikricha, ba’zi olimlar dialektikaning metodologik rolini sinergetikaga o’tkazdilar[7]. Ayrim olimlar dialektikaning metodologik roliga shubha qila boshladilar[8]. Bir qator olimlar sinergetikada dialektikaning ayrim qoidalarini tasdiqlash, chuqurlashtirish va konkretlashtirishni topishga harakat qilmoqdalar[9]. Poddubniyning o’zi dialektika va sinergetika yagona metodologiyaning bir-birini to’ldiruvchi ikkita tarmog’i ekanligi haqidagi g’oyani ishlab chiqadi[10].

Bu masala bo’yicha sinergetikani dialektikani chuqurlashtirish vositasi deb hisoblaydiganlarning nuqtai nazari ham, Poddubniyning pozitsiyasi ham haqli ko’rinadi, chunki ular bir-biriga zid emas.

Sinergetikaning metodologik statusiga nisbatan xulosa shuki, bu muammoni hal qilish o’z yo’lining boshida turibdi. Biroq, shunga qaramay, pessimizm uchun hech qanday sabab yo’q. Murakkab tizimlarning o’z-o’zini tashkillashtirish jarayonlarini o’rganishda sinergetikaning evristik roli aniq.

Sinergetik metodologiya quyidagilarni o’z ichiga olishi kerak: tamoyillar (prinsiplar), qonunlar, kategoriyalar, metodlar va boshqalar. Biz tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar (tushunchalar)ni ta’kidlash bilan cheklanamiz. Sinergetikaning kategoriyalari va tushunchalari mustaqil guruhlariga ajratmasdan, birgalikda ko’rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar. O’z-o’zini tashkil etish konsepsiyalarini ko’rib chiqib, A.A.Pechenkin va A.R.Terteryan o’z-o’zini tashkillashtirish konsepsiyasining asosiy tamoyillarini izlash hali tugamaganligini yozadilar. “Umuman olganda, prinsiplar sohasida ma’lum darajada o’z-o’zini tashkillashtirish konsepsiyasining asosiy ishtirokchilari va tendensiyalarini sanab o’tishda

“g’alati” atamalar aralashmasi saqlanib qolgan deb aytish mumkin. Bu xilma-xillikni nima bog’laydi degan savol haligacha ochiqligicha qolmoqda”[11]. Vaqt o’tishi bilan sinergetikaning asosiy tamoyillarini tizimlashtirish va shakllantirishga harakat qilingan boshqa asarlar paydo bo’ldi. Ushbu masala bo’yicha ba’zi fikrlarni ko’rib chiqsak. V.A. Arshinov va V.E. Voysexovichlar sinergetikada xususiy va umumiy ilmiy nazariyalar tamoyillarini ajratib ko’rsatadi. Ular to’rtta tamoyilni xususiy ilmiy tamoyillar deb atashadi: nochiziqlik, beqarorlik, ochiqlik va bo’ysunish tamoyil[12].

V.P. Branskiy barqarorlik tamoyili haqida shunday yozadi: “Ma’lumki, tartib va tartibsizlikning turlari beqaror va bir-biriga o’tishga moyildir. Fizika nuqtai nazaridan, barcha bunday o’tishlarning ma’nosi barqarorlikni izlashdir(tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o’tishi to’xtaydigan holatga erishish)”[13]. Boshqa bir joyda muallif barqarorlik tamoyilini qonun sifatida gapiradi, uning asosida tizim taraqqiyoti qaysi yo’ldan borishi tanlanadi: “Borliqdagi har qanday dissipativ tizimda o’zaro ta’sir obyektiv qonun sifatida ishlaydi... Yuqoridagilardan ma’lum bo’lganidek, dissipativ strukturalar haqida gap ketganda, bunday qonun barqarorlikning tamoyili hisoblanadi...”[14].

Sinergetik tamoyillarning yuqoridagi ro’yxatlaridan ko’rinib turibdiki, ular bir-biridan ancha farq qiladi. Ular miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan farqlanadi. Bundan tashqari, yangi tamoyillarni joriy etish uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu shuni ko’rsatadiki, sinergetika tamoyillarini tizimlashtirish muammosi hali ham o’z yechimini kutmoqda. Sinergetika tamoyillarining tabiati haqidagi fikrlarning tarqoqligiga qaramasdan, ularning har biri metodologik funksiyaga ega. Har bir tamoyil alohida yoki boshqa tamoyillar bilan birgalikda qabul qilingan holda, o’z-o’zini tashkillashtirish jarayonida muhim jihatni aks ettiradi. Kognitiv prinsip sifatida qabul qilinganda, u tadqiqot dasturiga, empirik ma’lumotlarni tushunish va sharhlash vositasiga aylanadi.

Sinergetika tamoyillari bilan bir qatorda uning qonunlari ham metodologik ahamiyatga ega. Muammo shundaki, ular nafaqat fiziklar yoki matematiklar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari tomonidan ham idrok yetish uchun maqbul bo’lgan ozmi-ko’pmi aniq ifodalangan shaklda o’rganiladigan tadqiqotlar juda kam.

“Sinergetika yangi dunyoqarash sifatida: I.Prigojin bilan dialog” maqolasida sinergetika noodatiy g’oyalari va tasavvurlar bilan hayratga solishi qayd etilgan. Ular orasida qonunlar ham bor edi. “Sinergetika keskin jarayonlar va nochiziqli, o’z-o’zini rag’batlantiruvchi o’sish jarayonlari paydo bo’lishining qonuniyatlari va shartlarini ochib beradi”. Bundan tashqari, aynan shu jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda, qonuniyatlar haqida bir og’iz so’z uchramaydi. Masalan, nochiziqlik g’oyasi o’z-o’zini tashkil etish jarayonini tushunish uchun muhimdir. Mualliflar nochiziqlik hodisaning bir qator xususiyatlarini aniqlaydilar. Birinchidan, nochiziqlik sababli fluktuatsiyalarni kuchaytirishning eng muhim tamoyili amal qiladi. Ikkinchidan, nochiziqli ochiq tizimlarning ayrim sinflari o’zaro ta’siridek yana bir muhim xususiyatini namoyish yetadi. Uchinchidan, nochiziqlik nochiziqli tizimlar evolyutsiyasi yo’llarining diskretligini hosil qiladi. Berilgan nochiziqli muhitda evolyutsiyaning har qanday yo’li vujudga kelishi mumkin emas, bu yo’llarning faqat ma’lum bir spektri sodir bo’ladi.

Sinergetika qonuniyatlarini shakllantirish va aniqlashdagi ishlar holatining tahlili shuni ko’rsatadiki, bu yerda tamoyillarni aniqlash va belgilashda bo’lgani kabi hali ko’p tadqiqot ishlarini bajarish kerak. Biroq, bu sohada amalga oshirilgan ishlar ham ko’plab olimlarga bir qator muammolarga yangicha qarash imkonini berdi. Sinergetika qonunlari haqidagi bilim, ular

orqali har qanday tizimning o'zini o'zi tashkil qilish jarayonini to'liq tasvirlash mumkin bo'lgan holatdan uzoqdir. Mazkur qonunlar va qonuniyatlar jarayonning individual jihatlarini aks ettiradi.

Sinergetika tushunchalari tarkibida muhim o'rinni attraktor tushunchasi egallaydi. Odatda attraktorlar tizimning fazaviy fazodagi nisbatan barqaror holatlarining tasvirlari sifatida tushuniladi. Ko'rinib turibdiki, attraktor haqidagi bu fikr mikrokosmos hodisalarini tabiiy shaklda to'g'ridan-to'g'ri idrok yetish mumkin emasligi bilan bog'liq. Ular vizual shaklni faqat grafikalar, diagrammalar va hokazolardagi asboblardan va tasvirlar orqali yoki kompyuter displeyida oladi. Bunda taxmin qilingan jarayon inson idroki uchun qulay bo'lgan shaklda modellashtirilgan. Shuning uchun attraktor mikrozarrachaning ma'lum traektoriya bo'ylab harakatlanishining barqaror ko'rinishi sifatida qabul qilinadi.

V.P.Branskiy dunyoqarashga nisbatan tizimning rivojlanish jarayonini modellashtirish uchun "superattraktor" tushunchasidan foydalangan holda "attraktor" tushunchasiga quyidagi talqinni beradi. Superattraktor deganda muallif dissipativ tizimning ma'lum bir chekli holatini tushunadi. Superattraktor mayllarning mutlaq xilma-xilligi yoki mutlaq idealdagi mutlaq birlikning timsolidir. Attraktorni tushunishning yana bir versiyasi N.S.Rozovning "Falsafa va tarix nazariyasi" kitobida keltirilgan. U o'z ishida "attraktor tiplari" tushunchasidan foydalanadi. "Attraktor tiplari M.Veberning ideal tipi va I.Prigojinning attraktori tushunchalarining birikmasidir".

"Tip-attraktorlar, — deb yozadi muallif, — bu yerda tizim o'zgarishlarining shartli ko'p parametrli makonidagi beqarorlik, inqirozlar va bifurkatsiyalarning eng yaqin zonasida joylashgan tizimlarni "o'ziga tortadigan" joylar tushuniladi. Bundan tashqari tizim bunday tip-attraktorga "kirganida" muayyan muddatli barqarorlik davri boshlanadi.

"Attraktor" tushunchasining yuqoridagi ta'riflaridan ko'rinib turibdiki, matematikada qo'llaniladigan mazmun asos qilib olinadi. Ammo har bir konkret ta'rifda mualliflarning fikriga ko'ra, ularning nuqtai nazari yoki o'rganilayotgan tizimning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi jihat qo'shiladi. "Attraktor" tushunchasining metodologik roli uning boshqa attraktorlar bilan o'zaro ta'sir qilish xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Gap shundaki, attraktorlar o'z maqomi va salohiyati jihatidan teng emas: kuchli va kuchsiz atraktorlar bor. Ma'lum bo'lishicha, kuchli attraktor o'z ta'sir zonasiga kiruvchi kuchsizroq attraktorlarni o'ziga tortadi va o'zlashtiradi. Bundan tashqari, bunday aloqa kuchli va zaif attraktorga foydali ta'sir ko'rsatadi. Yangi tizim o'tish davridan keyin kuchliroq va barqarorroq bo'ladi. Kuchli attraktorning bu xususiyati ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan ko'plab jarayonlarni (masalan, imperiyalarni shakllantirish istagi) tushunish va tushuntirishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda: 1) sinergetika o'zining kognitiv imkoniyatlari jihatidan zamonaviy fan uchun katta ahamiyatga ega. Bu tadqiqotchini dunyoni yanada murakkab idrok etishga yo'naltiradi va tizimlarning (ochiq, muvozanatsiz) butun sinfi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni ochib beradi; 2) sinergetika shakllanish jarayonida bo'lib, aniq va mustahkam tuzilishga ega emas. Sinergetikaning barcha qismlari: prinsiplar, qonunlar va asosiy tushunchalar metodologik funksiyani turli darajada bajaradi; 3) sinergetika falsafaning ba'zi qoidalarini to'liqroq tushunishga imkon beradi. Miqdoriy o'zgarishlarning sifatga o'zaro o'tish qonuni miqdoriy o'zgarishlar natijasida yangi sifat qanday paydo bo'lishini ko'rsatmaydi. Faqat bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tishning xarakteristikasi namoyon bo'ladi. Sinergetika esa yangi strukturalarning eski sifati doirasida shakllanish mexanizmini muhitdagi

flukuatsiyalar va ulardan dissipativ tuzilmalarning shakllanishini ochib beradi. 4) sinergetika eski muammolarni ko'rib chiqishning yangi tomonlarini va qirralarini namoyish qiladi. Sinergetik metodologiyaning falsafiy va aksincha organik birikmasi murakkab tizimlarni o'rganish metodologiyasining rivojlanishiga yangi turtki berishi mumkin va buni keyingi ishlarimizda ko'rib chiqamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Тўраев Б. О. Сinergetika: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши //Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.
2. Поддубный, Н. В. Сinergetika: диалектика самоорганизующихся систем. - Белгород: Изд-во Белгород. гос. ун-та, 1999. - 351 с.
3. Аршинов В.И., Войцехович В.Э. Сinergetическое знание: между сетью и принципами // Сinergetическая парадигма. Многообразие поисков и подходов. - М.: Прогресс-Традиция, 2000. -С. 109.
4. Сапронов, М. В. Сinergetический подход в исторических исследованиях: новые возможности и трудности применения // Обществ. науки и современность. - 2002. - № 4. - С. 159-160.
5. Котелников, Г. А. Теоретические основы синергетики. - Белгород: БелГТАСМ, 1998. - С. 126.
6. Тузов, В. В. Язык синергетики и философии в контексте современной культуры // Языки культуры: история и современность: сб. науч. тр. - СПб. : СПбГИЕУ, 2001. - С. 30-40.
7. Моисеев Н. Н. Расставание с простотой. - М., 1998. - 473 с.; Алтухов, В. Л. Марксистская диалектика стоит перед вызовом времени // Обществ. науки. - 1990. - № 5. - С. 84-98; Венгеров, А. Б. Сinergetika и политика // Обществ. науки и современность. - 1993. - № 4. - С. 55-59; Котелников, Г. А. Теоретические основы синергетики. - Белгород, 1998. - С. 126.
8. Қаранг: Садовский, В. Н. Карл Поппер. Гегелевская диалектика и формальная логика // Вопр. философии. -1995. - № 1. - С. 139-147; Смирнов, В. А. К. Поппер прав: диалектическая логика невозможна // Вопр. философии. - 1995. - № 1. - С. 148-151.
9. Абдеев, Р. Ф. Философия информатсионной сивилизатсии. - М., 1994. - 335 с.; Аршинов, В. И. Когнитивные стратегии синергетики // Онтология и эпистемология синергетики. - М., 1997; Швырев, В. С. Как нам относится к диалектике? // Вопр. философии. - 1995. - № 1. - С. 152-158; Каракозова, Э. В. Диалектика и синерgetika: новый уровень союза философии и науки // История и тенденции развития науки на пороге ХХI века. - 2003. - С. 156-160 и др.
10. Поддубный, Н. В. Сinergetika: диалектика самоорганизующихся систем. - Белгород: Изд-во Белгород. гос. ун-та, 1999. - 351 с.
11. Печенкин, А. А. Предисловие / А. А. Печенкин, А. Р. Тертерян // Концепсия самоорганизатсии в исторической ретроспективе. - М.: Наука, 1994. - С. 5.
12. Қаранг.: Аршинов, В. И. Принципы представления протсессов становления в синерgetике / В. И. Аршинов, Б. Г. Буданов, В. Э. Войцехович // ХI Международная конференция «Логика, методология, философия науки». Т. 7. Методологические проблемы синерgetики. - М.: Обнинск, 1995. - С. 3-5.
13. Бранский, В. П. Теоретические основания сотсиальной синерgetики // Там же. - 2000. - № 4. - С. 112.
14. Бранский, В. П. Теоретические основания сотсиальной синерgetики // Там же. - 2000. - № 4. - С. 115.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).